Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 5 (2026) Published May 25, 2026

THE ROLE OF DETAILS IN THE INTERPRETATION OF NATIONAL CHARACTER AND SPIRITUAL DECLINE IN SOBIR ONAR'S STORY "THE MILLER'S CHILD"

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich

Independent Researcher (PhD), Jizzakh State Pedagogical University.

boburroziboyev07@gmail.com

Abstract

This article analyzes the story "The Mill's Son" by Sobir Onar from an artistic and aesthetic point of view. The purpose of the study is to determine how the issues of national character, father-child relations, labor philosophy and spiritual decline are artistically interpreted in the work using the image of Mardiboy Baba. During the study, the narrator's speech in the story, the poetics of memory, the function of artistic details and symbols in revealing the hero‘s psyche are scientifically substantiated. In particular, the philosophical and artistic essence of such symbols as a mill, water, poppy, sun and lock is highlighted. The results of the study show that the author seeks to reveal the hero‘s character through artistic details rather than directly describing it, which gives the work a multi-layered artistic and philosophical content.

Keywords

national character, artistic image, psychologism, artistic detail, symbol, mill, narrator, spiritual decline, poetics of memory, conflict.

SOBIR O‘NARNING “TEGIRMONCHINING BOLASI” HIKOYASIDA MILLIY XARAKTER VA MA'NAVIY TANAZZUL TALQINIDA DETALLARNING O‘RNI

Ro‘ziboyev Bobir Mirzakulovich

JDPU mustaqil tadqiqotchisi Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani 69-maktab ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

boburroziboyev07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sobir O‘narning “Tegirmonchining bolasi” hikoyasi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi asarda milliy

xarakter, ota-farzand munosabatlari, mehnat falsafasi va ma'naviy tanazzul masalalari Mardiboy bobo obrazi misolida qanday badiiy talqin etilganini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida hikoyadagi roviy nutqi, xotira poetikasi, badiiy detal va ramzlarning qahramon ruhiyatini ochishdagi funksiyasi ilmiy jihatdan asoslanadi. Xususan, tegirmon, suv, ko‘knori, oftoba va qulf kabi timsollarning falsafiy-badiiy mohiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muallif qahramon xarakterini bevosita tavsiflashdan ko‘ra, uni badiiy detallar vositasida ochishga intiladi, bu esa asarga ko‘p qatlamli badiiy-falsafiy mazmun baxsh etadi.

Kalit so‘zlar: milliy xarakter, badiiy obraz, psixologizm, badiiy detal, ramz, tegirmon, roviy, ma'naviy tanazzul, xotira poetikasi, konflikt.

РОЛЬ ДЕТАЛЕЙ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ХАРАКТЕРА И ДУХОВНОГО УСТАЛОСТЯ В РАССКАЗЕ СОБИРА ОНАРА «ДИТОК МЕЛЬНИКА»

Рузибоев Бобир Мирзакулович

Независимый исследователь (PhD) Джизакского государственного педагогического университета имени Абдуллы Кадыри

boburroziboyev07@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ Собира Онара «Сын мельницы» с художественно-эстетической точки зрения. Цель исследования – определить, как в произведении на примере образа Мардибоя Бабы художественно интерпретируются вопросы национального характера, отношений отца и ребенка, трудовой философии и духовного упадка. В ходе исследования научно обоснованы речь рассказчика, поэтика памяти, функция художественных деталей и символов в раскрытии психики героя. В частности, выделена философско-художественная сущность таких символов, как мельница, вода, мак, солнце и локон. Результаты исследования показывают, что автор стремится раскрыть характер героя через художественные детали, а не напрямую описывать его, что придает произведению многослойное художественно-философское содержание.

Ключевые слова: национальный характер, художественный образ, психологизм, художественная деталь, символ, мельница, рассказчик, духовный упадок, поэтика памяти, конфликт.

KIRISH

Istiqlol davri o‘zbek hikoyachiligida inson ruhiyatini milliy qadriyatlar, ma'naviy inqiroz va tarixiy xotira bilan uyg‘un holda tasvirlashga alohida e'tibor qaratildi. Bu davr nasrida voqealar rivojidan ko‘ra inson qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlar, axloqiy tanlov hamda milliy tafakkur masalalari ustuvorlik kasb etadi. Zamonaviy hikoyanavislar hayotiy voqealarni oddiygina tasvirlash bilan cheklanmay, ular zamiridagi falsafiy qatlamni ham ochishga intiladilar.

Sobir O‘nar ijodida ana shunday badiiy tamoyillar yaqqol namoyon bo‘ladi. Adibning "Tegirmonchining bolasi" hikoyasi voqeaband asardan ko‘ra inson umrining ma'naviy mazmunini yorituvchi falsafiy hikoya sifatida diqqatga sazovordir. Asarda Mardiboy bobo obrazi orqali halollik, mehnatsevarlik, insoniy g‘urur, ota-farzand munosabatlari hamda hayotning muqarrar adolat qonuniyatlari badiiy tadqiq etiladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, mustaqillik davri o‘zbek hikoyachiligida oila, ota-ona hurmati va milliy qadriyatlarning yemirilish jarayonini badiiy talqin etuvchi asarlar hali yetarlicha ilmiy tadqiq etilmagan. Shu bois Sobir O‘narning mazkur hikoyasini badiiy detallar nuqtai nazaridan monografik tahlil qilish adabiyotshunoslik uchun muayyan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi - hikoyada qo‘llangan badiiy detallar (portret, ovoz, mehnat jarayoni tasviri, tegirmon, suv, ko‘knori, oftoba, qulf kabi timsollar) vositasida milliy xarakter va ma'naviy tanazzul mavzusining qanday badiiy talqin topganini aniqlash, shuningdek roviy nutqi va xotira poetikasining asar kompozitsiyasidagi o‘rnini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotning asosiy manbai sifatida Sobir O‘narning "Tegirmonchining bolasi" hikoyasi olindi. Nazariy-metodologik asos sifatida L.I.Timofeyevning realistik obraz yaratish tamoyillariga oid qarashlari hamda A.Qahhorning yozuvchi mahorati haqidagi

mulohazalari, shuningdek N.Rahimjonovning istiqlol davri o‘zbek adabiyoti bo‘yicha tadqiqotlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: struktural-semantik tahlil - hikoyadagi badiiy detallarning matn ichidagi o‘rni va funksiyasini aniqlash uchun; qiyosiy-tipologik metod - asardagi timsollarni milliy adabiy an'ana kontekstida qiyoslash uchun; hermenevtik yondashuv - ramziy detallarning chuqur ma'no qatlamlarini ochish uchun; biografik-psixologik tahlil - roviy nutqi va xotira poetikasining qahramon ruhiyatini ochishdagi rolini belgilash uchun qo‘llanildi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Portret va mehnat orqali xarakter yaratish. Hikoya boshidanoq muallif Mardiboy boboni tashqi qiyofasi orqali emas, avvalo, uning mehnatkashligi va hayot tarzini ko‘rsatish orqali xarakterlaydi: "Qishloqning yagona suv tegirmonini shu odam bir umr yurgizgan..."[1]

Mazkur jumla oddiy axborot bo‘lib tuyulsa-da, unda qahramon umrining mazmuni mujassamlashgan, chunki tegirmon Mardiboy boboning kasbigina emas, balki butun hayot falsafasini ifodalovchi timsoldir. U umrini odamlarning rizqini tayyorlashga, halol mehnat qilishga bag‘ishlagan inson sifatida gavdalanadi.

Yozuvchi qahramon portretini ham mehnat bilan uyg‘unlashtiradi: "...doim katak ishtonda qishin-yozin yalang kovush kiyib yuradigan..." Portretdagi bu detallar qahramonning kambag‘alligini emas, balki sodda turmush tarzini ifodalaydi. Muallif tashqi ko‘rinish vositasida uning mehnatkash va kamtar inson ekanligini kitobxon ongiga singdiradi.

Qahramonning ovozi haqidagi tasvir ham oddiy fiziologik belgi emas: "...tegirmonning gard-changlari bu odamni xirildoq qilib qo‘ygan emish." Bu yerda xirildoq ovoz umr bo‘yi og‘ir mehnatning inson tanasida qoldirgan izi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, yozuvchi birgina detal orqali Mardiboy boboning butun umr yo‘lini kitobxon ko‘z oldida gavdalantira olgan.

Shuningdek, qahramonning jismoniy qudrati xalq xotirasida yashayotgan rivoyatlar orqali ochiladi. Bug‘doy o‘rimidagi mehnati yoki yuz kilolik qoplarni bemalol

[1]Sobir O'nar. Tegirmonchining bolasi (hikoya) // Ziyouz elektron kutubxonasi. – 2014. – 22-mart. – B. 1.

ko‘tarishi tasvirlari mubolag‘a unsurlarini eslatsa-da, ular xalqning mehnatkash insonga bo‘lgan hurmati ifodasi sifatida xizmat qiladi. Natijada Mardiboy bobo nafaqat alohida shaxs, balki o‘zbek dehqonining umumlashma obrazi darajasiga ko‘tariladi.

Tegirmon timsolining badiiy funksiyasi. Hikoyada tegirmon voqealar kechadigan oddiy makon emas, balki asarning bosh badiiy timsolidir. Adib voqealar rivojini aynan tegirmon bilan bog‘lab, uning orqali mehnat, halollik, umr va avlodlar davomiyligi haqidagi falsafiy qarashlarni ifodalaydi. Asar davomida tegirmon doimo harakat, rizq va baraka manbai sifatida tasvirlanadi hamda milliy tafakkurdagi halol mehnat tushunchasining badiiy ifodasiga aylanadi.

Muallif tegirmon ish jarayonini batafsil tasvirlaydi: "Mardiboy bobo bir o‘zi bu qoplarni eshakdan tushirib, navbati bilan bir qop bug‘doy sig‘adigan tepadagi yog‘och idishga ko‘tarib o‘zi to‘kib qo‘yardi." Mazkur lavhada qahramonning jismoniy qudrati emas, avvalo uning kasbiga sadoqati va mas'uliyati namoyon bo‘ladi. Hikoyada tegirmonchi biror marta ham birovning bug‘doyini boshqasiga aralashtirmasligi alohida ta'kidlanadi - bu detal uning halolligi va kasbiy vijdonini ochishga xizmat qiladi.

Asarning yakunida esa tegirmonning boshqa holati tasvirlanadi: "Ilgari bu tegirmon qulf ko‘rmagan. Hozir esa kalladay qulf osig‘liq turadi." Mazkur detal chuqur ramziy ma'noga ega: avvallari odamlar bir-biriga ishonib yashagan, halollik ustuvor bo‘lgan muhit endi yo‘q. Endilikda qulf nafaqat eshikni, balki insonlar qalbidagi ishonchning ham yopilganini anglatadi. Shunday qilib, tegirmon timsoli asar boshida hayot va baraka ramzi bo‘lsa, yakunda ma'naviy qadriyatlarning yemirilishiga guvoh bo‘lgan sukut timsoliga aylanadi.

Ota va farzand konflikti - ma'naviy tanazzul ifodasi. Hikoyaning dramatik cho‘qqisi Mardiboy bobo bilan uning katta o‘g‘li o‘rtasidagi ziddiyat orqali yuzaga chiqadi. Muallif bu mojaroni oddiy meros talashuvi sifatida emas, balki ikki xil dunyoqarash to‘qnashuvi sifatida tasvirlaydi: Mardiboy bobo uchun yer va bog‘ avlodlardan qolgan muqaddas meros bo‘lsa, o‘g‘li uchun u moddiy manfaat manbaidir. Shu sababli ota vasiyatiga qarshi chiqqan farzand asta-sekin ma'naviy tubanlik sari yuz tutadi.

Adib voqeani keskin dramatizm bilan ifodalaydi: "O‘g‘li otasi tahoratga ko‘tarib chiqqan mis oftobasini qo‘lidan tortib olib boshiga tushirganini ham ko‘rdik." Mazkur

epizod hikoyadagi eng fojiaviy nuqtalardan biridir. Tahorat uchun olib chiqilgan oftobaning zo‘ravonlik quroliga aylanishi kuchli ramziy ma'no kasb etadi: poklik timsoli bo‘lgan buyumning qon to‘kish vositasiga aylanishi jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar yemirilayotganini anglatadi.

Muallif voqeani ortiqcha izohlamaydi. Faqat: "Cholning boshidan qon otilar edi..." degan qisqa jumla orqali fojeaning dahshatini kitobxon tasavvuriga havola qiladi. Lakonik tasvir voqeaning hissiy ta'sirini yanada kuchaytiradi. Bundan-da achinarlisi, ota hayotdan ko‘z yumgach, uni urgan farzandning ta'ziyada "Otam..." deb faryod chekishi tasvirlanadi. Ushbu kontrast yozuvchining badiiy mahoratini namoyon etadi: tashqi motam bilan ichki munofiqlik qarama-qarshi qo‘yilib, qahramonning ma'naviy qiyofasi ochib beriladi.

Roviy nutqi va xotira poetikasi. Hikoyaning badiiy jozibasini ta'minlagan muhim omillardan biri - rivoyatchining bolalik xotiralari asosida voqealarni hikoya qilishidir. Roviy voqealarning bevosita ishtirokchisi bo‘lsa-da, ularga bolalik nigohi va ulg‘aygan inson tafakkuri uyg‘unligida baho beradi. Natijada hikoyada ikki qatlamli tasvir yuzaga keladi: voqealarni ko‘rgan bola va ularni yillar o‘tib tahlil qilayotgan yetuk inson.

Masalan, Mardiboy boboning favqulodda kuchi, g‘ilmindi haqidagi latifalar, tegirmondagi mehnati avval bolalik hayrati bilan tasvirlansa, asar yakuniga yaqin ular hayot falsafasining tarkibiy qismiga aylanadi. Muallif xotira usulidan foydalanib, qahramon shaxsini romantiklashtirmaydi, balki uni hayotning barcha murakkabliklari bilan ko‘rsatadi - bu esa obrazning hayotiyligini ta'minlaydi. Roviy nutqida xalqona iboralar, kinoya, yumor va achchiq iztirob uyg‘unlashgan; ayniqsa, g‘ilmindi haqidagi epizodlar asarning dramatik ruhini yumshatib, voqealarning tabiiy oqimini ta'minlaydi, biroq keyinchalik ayni shu kulgili lavhalar fojiaviy voqealar fonida boshqacha ma'no kasb etib, kompozitsion yaxlitlikni mustahkamlaydi.

Yordamchi timsollar tizimi: suv, ko‘knori, oftoba**.** Sobir O‘nar hikoyada inson xarakterini bevosita izohlashdan ko‘ra, uni badiiy detallar vositasida ochishga intiladi. Ayniqsa, tegirmon, suv, qulf, ko‘knori, oftoba, Volga kabi detallar obrazlarning ichki mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Tegirmon hayot va halol mehnat timsoli bo‘lsa, suv vaqt va umr oqimini ifodalaydi. Hikoya nihoyasidagi "Na bo‘lg‘ay, shu suvlar Mardiboy boboning tegirmonini ham yurgizib turdi..." jumlasi ramziy ma'noga ega: suv inson umrini oqizib ketadi, biroq halol mehnat izlari saqlanib qoladi. Demak, umr o‘tkinchi, ezgu amal esa boqiydir.

Ko‘knori detali esa mutlaqo boshqa semantik yukni bajaradi. Agar tegirmon rizq va poklik timsoli bo‘lsa, ko‘knori harom boylik, nafs va ma'naviy yemirilish ramzidir. Muallif Chindali akaning aynan ko‘knori savdosi orqali boyishi, lekin oxir-oqibat o‘z farzandlari qo‘lida halok bo‘lishini tasvirlab, harom rizqning barakasi bo‘lmasligini badiiy asoslaydi.

MUHOKAMA

Buyuk rus olimi L.Timofeyev realistik yozuvchilar ijodida "voqelikdagi hodisalarni ular hayotda qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha ko‘rsatishga intilish" yetakchilik qilishini, bu jihat ularni qayta yaratish ibtidosi ustuvorlik qilgan obrazlardan farqlantirishini ta'kidlagan edi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Sobir O‘nar ham aynan shu yo‘lni tanlaydi: u Mardiboy bobo obrazini didaktik nasihat orqali emas, balki kundalik mehnat tafsilotlari va badiiy detallar orqali yaratadi, bu esa obrazga yuqori darajadagi hayotiylik baxsh etadi.

A.Qahhorning yoshlar seminaridagi nutqida bildirilgan fikri - yozuvchi o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissini uyg‘otishi uchun avval o‘zi turmush hodisasini tahlil qilib, unga munosabat bildirishi lozimligi haqidagi mulohaza[2] - Sobir O‘nar ijodiga ham tatbiq etiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, muallif ikki fojiaviy voqeani (Mardiboy boboning o‘z o‘g‘li tomonidan urilishi va shu o‘g‘ilning keyinchalik o‘z farzandlari tomonidan halok qilinishi) ketma-ket joylashtirish orqali xalq tafakkuridagi "qaytar dunyo" konsepsiyasini badiiy asoslaydi.

Rivoyatchining "Mazlumning, musofirning va ota-onaning duosi uchun Olloh huzurida parda yo‘q emish..." degan mulohazasi hikoyaning g‘oyaviy kaliti vazifasini bajaradi. Bunda didaktik ohang sezilmaydi - aksincha, hayotiy hodisalarning tabiiy rivoji

[2]Қаҳҳор А. Асарлар: 5 жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б. 66.

orqali adolatning muqarrarligi isbotlanadi. Bu jihat asarni oddiy axloqiy nasihatdan farqlab, uni chuqur falsafiy mushohadaga aylantiradi.

N.Rahimjonov ta'kidlaganidek, "hayot haqiqatini badiiy obrazlarga singdirish adib iste'dodining darajasi va miqyoslaridan dalolat beradi"[3]. Ushbu tadqiqot doirasida aniqlanishicha, Sobir O‘nar xotira poetikasi va badiiy detallar tizimini uyg‘unlashtirish orqali aynan shunday yuksak badiiy mahoratni namoyon etadi: roviyning ikki qatlamli - bolalik va yetuklik - nigohi orqali berilgan tasvir asarga psixologik chuqurlik baxsh etadi.

Shunday qilib, ota va farzand konflikti hikoyada shaxsiy mojaro doirasidan chiqib, jamiyatdagi ma'naviy inqirozning badiiy modeliga aylanadi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirganda, hikoyaning g‘oyaviy markazida ota-onaga hurmat, halollik va mehr-oqibat kabi milliy qadriyatlarning yemirilishi qanday fojiali oqibatlarga olib kelishi ta'sirchan badiiy shaklda ifodalangani ko‘rinadi. Bu esa asarning nafaqat estetik, balki tarbiyaviy-axloqiy ahamiyatini ham belgilaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, Sobir O‘narning "Tegirmonchining bolasi" hikoyasi voqealar silsilasini oddiy xotiralar tarzida emas, balki hayotning sabab-oqibat qonuniyatiga asoslangan falsafiy mushohada sifatida quradi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga imkon beradi:

1) Muallif Mardiboy bobo xarakterini bevosita tavsiflashdan ko‘ra, portret, ovoz va mehnat jarayoni tasviri kabi badiiy detallar vositasida ochib beradi, bu esa obrazga yuksak hayotiylik baxsh etadi;

2) Tegirmon, suv, ko‘knori, oftoba va qulf kabi timsollar tizimi asarning ikkinchi, ramziy-falsafiy qatlamini tashkil etib, halol mehnat, umr o‘tkinchiligi va ma'naviy tanazzul mavzularini badiiy asoslaydi;

3) Ota-farzand konflikti hikoyada shaxsiy mojarodan jamiyatdagi ma'naviy inqirozning badiiy modeliga aylanib, xalq tafakkuridagi "qaytar dunyo" konsepsiyasini ifodalaydi;

[3]Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – Б. 45.

4) Roviy nutqidagi xotira poetikasi - bolalik nigohi va yetuklik tafakkuri uyg‘unligi - asarga ikki qatlamli badiiy tuzilma va psixologik chuqurlik baxsh etadi.

Xulosa qilib aytganda, hikoya milliy ma'naviyatning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan ota-onaga hurmat g‘oyasini zamonaviy badiiy tafakkur asosida talqin etadi hamda yoshlar ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko‘rsatish salohiyatiga ega. Kelgusi tadqiqotlarda Sobir O‘nar ijodidagi boshqa hikoyalarni ham xuddi shunday detal va timsollar tizimi nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilish istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sobir O‘nar. Tegirmonchining bolasi (hikoya) // Ziyouz elektron kutubxonasi. – 2014. 22-mart. 2 b.

2.Қаҳҳор А. Асарлар: 5 жилдлик. 5-жилд: Ҳақ сўзнинг кучи: мақолалар, суҳбатлар, қайдлар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 271 б.

3.Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт: (адабий-эстетик, танқидий тафаккур тамойиллари). Тошкент: Ўқитувчи, 2012. 328 б.

4. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы: учеб. пособие для пед. ин-тов. – 5-е изд., испр. и доп. М.: Просвещение, 1976. 448 с.